

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|-----|
| Nemis tili xorijiy til sifatida darsliklarining sifatini tekshirish haqida | 247 |
| S.Z.Yoʻldoshev | |
| Sport faoliyati yoʻnalishi talabalariga valeologiya fanini oʻqitishning didaktik imkoniyatlari | 251 |
| I.O.Umarov | |
| Kompetensiyaviy yondashuv asosida oʻquv-jangovar sifatlarni rivojlantirishning taʼlim texnologiyasi | 256 |
| Sh.M.Bazarbayeva | |
| Yettisuv viloyatida oʻlat epidemiyasiga qarshi kurash siyosati (1900-1910-yillar)..... | 264 |
| O.X.Mahamadjonova | |
| Bolalar folkloriga oid oʻn ikki choʻp va lapar oʻyinlari tavsifi va taʼrifiga doir | 268 |
| G.A.Donisheva | |
| Tarixiy jihatdan til leksikasining oʻrganilish darajasi (Oybekning Navoiy romani misolida) | 273 |
| L.A.Xaitov | |
| Hakim termiziy merosida inson vujudi (borligʻi) va ruhiy uzviyligi, inson oʻzligi (nafsi) muammosi. | 276 |
| Sh.S.Kodirova | |
| Teaching English language to geology students | 280 |
| S.S.Xoʻjiyeva | |
| Maktab kimyo darslarida innovatsion metodlardan foydalanish | 283 |
| F.I.Sharipova | |
| Developing reading comprehension at future nurses | 288 |
| U.B.Usmonova | |
| Sarlavhalar publitsistik matnning muhim qismi | 294 |
| K.X.Avazov | |
| Региональное и международное сотрудничество в целях обеспечения безопасности, стабильности в Центрально-Азиатском регионе | 297 |
| A.N.Qosimov | |
| Sport vositasida oʻquvchilarda milliy oʻzlikni anglash va gʻurur-iftixot tuygʻusini shakllantirishning pedagogik zarurati | 303 |
| A.T.Nishonov | |
| OTM talabalarida axborot oqimini tahlil qilish koʻnikmalarini shakllantirishning pedagogik jihatlari | 310 |
| M.X.Tillavoldiyeva | |
| Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy taraqqiyot oʻrtasidagi aloqadorlik muammolari | 314 |
| U.D.Xudoyorov | |
| Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi miqdor va sifat koʻrsatkichlarining xususiyatlari..... | 318 |
| S.U.Allayarova | |
| Oʻquvchilar lugʻat boyligini oshirishning lingvo-pedagogik xususiyatlari..... | 325 |
| Ch.T.Qurbonova | |
| Tabiiy geografiya va geoekologiyada GAT texnologiyalaridan foydalanish..... | 329 |
| Z.A.Kendjaeva | |
| Ilk, jahon dinlari va falsafiy qarashlarda shukronalikka munosabat..... | 333 |
| L.S.Sultonova | |
| Milliy qadriyatlarining innovatsion taraqqiyot talablari asosida rivojlantirish | 338 |
| Sh.T.Temirov | |
| Mir Muhammad Siddiq Hashmat shaxsiy kutubxonasining Buxoro ilmiy-adabiy muhitidagi oʻrni..... | 341 |
| S.X.Kaxxarov | |
| Yoshlarda harbiy vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishda harbiy madaniyat omili | 346 |
| A.R.Joʻrayev | |
| Minnatdorchilik bildirish nutqiy janri verbal, noverbal va lingvistik atributlarining oʻziga xosligi | 351 |
| M.C.Muxamedova | |
| Роль Музеев Узбекистана в жизни общества (начало XX века)..... | 356 |
| G.J.Tulenova | |
| On the issue of implementation of projects on the development and practical | |



UO'K: 2-73

**HAKIM TERMIZIY MEROSIDA INSON VUJUDI (BORLIG'I) VA RUHIY UZVIYLIGI,
INSON O'ZLIGI (NAFSI) MUAMMOSI.**

**ПРОБЛЕМА НЕРАЗРЫВНОСТИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ТЕЛА (БЫТИЯ) И ДУХА,
ПРОБЛЕМА ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ (НАФС) В НАСЛЕДИИ ХАКИМА
ТЕРМИЗИ.**

**THE PROBLEM OF THE CONTINUITY OF THE HUMAN BODY (BEING) AND SOUL,
THE PROBLEM OF HUMAN IDENTITY (LUST) IN THE LEGACY OF HAKIM TERMIZI.**

Xaitov Lazizbek Azamatovich 

Buxoro davlat universiteti "Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrasida dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori(PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada buyuk vatandoshimiz Hakim at- Termiziy ilmiy merosida inson vujudi (borlig'i) va ruhi uzviyligi, inson o'zligi (nafsi) muammosi haqidagi qarashlari masalasi tahlil qilingan. Shuningdek, mutasavvifning axloqiy qarashlarida alohida o'rin tutgan asosiy tushunchalar haqida ma'lumot berilgan.

Аннотация

В данной статье анализируется вопрос о взглядах нашего великого соотечественника Хакима ат-Термизи на проблему неразрывности человеческого тела (бытия) и духа, человеческой идентичности (нафс) в его научном наследии. В нем также содержится информация о ключевых концепциях, которые занимают особое место в моральных воззрениях суфийских ученых.

Abstract

This article analyzes the question of the views of our great compatriot Hakim at-Termizi on the problem of the inseparability of the human body (being) and spirit, human identity (naf) in his scientific heritage. It also contains information about key concepts that occupy a special place in the moral views of Sufi scholars.

Kalit so'zlar: Hakim at-Termiziy, Hakim at- Termiziy asarlari, inson, ruh, qalb, sadr, aql, nafs, ruh.

Ключевые слова: Хаким ат-Термизи, Произведения Хакима ат-Термизи, человек, душа, сердце, садр, Разум, душа.

Key words: Hakim at-Tirmizi, Works of Hakim at-Termizi, man, soul, heart, sadr, Mind, soul.

KIRISH

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bishr Hakim Termiziy (820-932) Movarounnahrda yetishib chiqqan tengsiz donishmand, mutafakkir bo'lib, u "Hakim ul-avliyo" (Valiylar hakimi), "Qudvat ul-avliyo" (Avliyolar mayog'i), "Mashoyixi kibor" (Ulug' shayx), "Olimi usuli ad-din" (Din usuli olimi), "ash-Shayx" (Alloh ilmi bilimdoni), "al-Alloma Sayyid" (Payg'ambar avlodlari), "Muhaddis" (Hadisshunos), "az-Zohid" (Din targ'ibotchisi), "al-Hofiz" (Qur'onxon), "al-Imom" (Hazrati Ali avlodlari), "al-Orif" (Xudoni tanuvchi), "Al-valiy" (Avliyo, Allohning do'sti), "Al-Muazzin" (Azon aytuvchi), "Xoja" (Choryorlar avlodi), "Mufassir" (tafsirchi), "al-Hakim" (Ilmning ichki sirlarini biluvchi), "al-Olim", "Tabib" kabi unvonlarga ega bo'lgan allomadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Hakim Termiziy fiqh, hadis, tafsir, tasavvuf, aqid, falsafa, etika va psixologiya sohalariga oid to'rt yuzdan ortiq asar yaratgan bo'lib, ulardan oltmishga yaqini bizgacha yetib kelgan. Uning boy ilmiy merosi shartli ravishda 7 yo'nalishga bo'lingan. Qur'on ilmlari, hadis, fiqh, kalom, islom falsafasi, tasavvuf tarixi va tasavvufiy qarashlar bo'yicha tasnif qilingan. Asarlaridan Hakim Termiziy mavzuning o'zini quruq bayon qilishdan ko'ra ko'proq uning mohiyati, ko'z ilg'amas hikmati va chuqur ma'nosini ochib berishni maqsad qilgani va unga erishganini ko'ramiz.

Hakim Termiziy insonning botiniy va zohiriy olamini o'rganar ekan, shu yo'nalishda "Makrun nafs", "Adabun nafs", "Riyozatun nafs", "Navodirul usul" kabi maxsus asarlar yaratgan. Shuningdek "Masoil al-Maknuna", "Buduvvu sha'n Abu Abdulloh Termiziy" (Hakim Termiziy yo'lining boshlanishi), "G'ovrul umur", "Ma'rifatul-asror", "Masoil ahli saraxs", "Al imsol minal kitob sunna" asarlarida inson vujudi (borlig'i), tabiati va ruhi uzviyligi, hamda mohiyati bilan bog'liq muammolarga e'tibor qaratib, "ilmun-nafs" – nafs ilmiga oid o'z qarashlarini bayon etgan. Ahmad Abdurahim Soyih "As-Suluk inda al-Hakim at-Termiziy va masodiruhu minas-sunna" asarida Hakim Termiziyni "nafs ilmi" asoschisi sifatida e'tirof etgan.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Hakim Termiziyning ilmiy-ma'naviy merosida antropologik masalalar alohida Sharq falsafasi an'analari asosida tahlil qilganligini, inson tushunchasini "anasa", ya'ni "bir-biriga talpinish, birgalikda o'tirib ulfatchilik qilish, dilkashlik, do'st bo'lishga intilishlari sababli insonlar o'zaro ijtimoiy-ma'naviy munosabatlarga doimiy ehtiyoj sezadilar, agar bu xislatni yo'qotib qo'ysalar, unda odamovi bo'lib, yovvoyilashib qoladilar", - degan fikrlarini keltiradi.

Hakim Termiziydan inson to'g'risida so'ralganda: "Inson – ochiq oydin zaiflik va katta da'vo", - deb insonga bergan ta'rifni keltirgani va insonga berilgan ta'rifning mutasavvif g'oyalari aloqador tarzda tasavvufiy-falsafiy mohiyati ochib berilgan. Inson ongi, ilmi va tafakkuri bilan boshqa mavjudotlardan farqli hamda mukarram qilib yaratilgan. U ilmi bilan yuqori darajalar va yuksak cho'qqilarni zabt etadi. Shu ma'noda ilm va amal birligi insonni kamolotga yetaklaydi, – deydi Hakim Termiziy.

Tarixdan ma'lumki, ezgulikka xizmat qiluvchi aksariyat ta'limotlarda komil inson masalasi, ayniqsa ma'naviy-axloqiy tarbiya muhim masala bo'lib kelgan. Jamiyat, yurt kelajagini ta'minlovchi ushbu omilga har bir sohada, jabhada zarurat hissi sezilib kelingan. Shuning uchun ham turli qarashlarda tarbiya va ma'naviy kamolotning turlicha mazmun va usullari turli omillarga ko'ra har xil ishlab chiqilgan. Shunday bo'lsa-da, komil inson, komil shaxs g'oyasi har bir ta'limot yoki tafakkur tarzining asosiy muammolari qatoridan chetda qolib ketmagan. Qadimgi dinlar, ijtimoiy-falsafiy ta'limotlar, mutafakkirlar, jumladan Hakim at-Termiziy ham bu xususida o'ziga xos, ma'naviy-axloqiy, ruhiy va boshqa jihatlarga e'tibor qaratib, teran fikrlarni o'rtaga tashlagan. Mutasavvif Qur'oni karim va hadisi shariflar asosida komil inson tarbiyasining o'ziga xos metodlarini ishlab chiqqan. Mutasavvifning ma'naviy qarashlarida asosiy e'tibor ilm egallash, qalb tarbiyasi, nafsga qarshi kurashish va shu bilan qator axloqiy jihatlarga qaratilgan.

Hakim Termiziy "Navodir al-usul" dagi hadislarini sharhlashda o'ziga xos ma'naviy bir uslub tanlaydi va yondashadi. Fikrimizcha, Hakim at-Termiziy eng asosiy jihat sifatida hadislarida inson ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan g'oyalarni tanlab olib, inson borlig'i bilan bog'liq masalalarni tahlil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Hadislarni qalb, sadr, aql, nafs, ruh kabi unsurlar orqali sharhlab, ularning hikmati va yashirin ma'nolarini ochib bergan. Mutasavvifning sharhlarida ruh va nafs raqobatiga katta o'rin beriladi. Hakim at-Termiziyga ko'ra ruhning qarorgohi insonning bosh qismida bo'lib, shu yerdan u insonning tanasi bo'ylab yoyilgan. Nafsning qarorgohi esa qorinda, shu joydan u tana bo'ylab yoyilgan. Termiziy o'z sharhlarida ruhni "samoviy" va nafsni "ardiy" (yerga mansub) deb, ruh sovuq, nafs esa issiq deydi. Agar inson "puf" deb puflasa, sovuq havo chiqadi, bu ruhning sovuqligi. Agarda "xax" deb og'zidan havo chiqarsa issiq havo chiqadi, bu nafsning issiqligi. Birinchi sovuq havo-*nafsa*, ikkinchi issiq havo esa *nafxa*. Ruhning odati itoatkorlik, nafsning odati esa shaxvatga berilish. Hakim Termiziy har qanday hadislarini sharhlashga kirishar ekan, ruh va nafs unsurlari unda asosiy mavqeni egallaydi. Bunday yondashuvni uning har bir asarida topish mumkin. Shuningdek, mutasavvif ma'lum bir so'zning qo'llanayotgan ma'nosini tahlil etib, o'sha so'zni tashkil etgan harflargacha tahlil qiladi. Keyin esa so'z va uni tashkil etgan harflarni u anglatayotgan ma'no bilan bog'liqlik jihatini ochib beradi. Bu bilan so'zlar va ular bildirgan obekt nomi o'zidan-o'zi paydo bo'lib qolmagan, balki mantiqiy izchillik borligini ko'rsatib beradi. Hakim Termiziy o'z fikrlarini o'quvchilarga tushunarli tarzda yetkazish hamda bu fikrlarning hayotdan uzilib qolmagani va amaliy tatbiq etish mumkinligini ko'rsatish maqsadida o'z tajribasidan kelib chiqib, turli misol, rivoyat va xulosalardan keng foydalanganlar. Alloma ijodining yana o'ziga xos jihati u diniy ilmlarning barcha sohalarini e'tibordan chetga qoldirmagan va xoh u fiqh bo'lsin, yoki kalom, suluk yoki tafsir bo'lsin, ularning barchasi bilan tanish bo'lgani asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mutasavvifning tasavvufiy ta'limotida valoyatlik tariqatidan tashqari qalb va uning tarbiyasiga ham maxsus o'rin berilgan. Termiziy inson qalbini ilohiy mahshargoh, ilmlar va ma'naviyat aks etadigan maskan sifatida tavsiflagan. Eron tadqiqotchisi Abdulhasayn Zarrinko'b bu masala bo'yicha olimning "Bayon ul-farq" asariga murojaat qilib, uning fikrlariga quyidagicha sharh beradi: Hakim qalb omilini sadr, qalb, fuod va lab tushunchalariga bo'ladi va bularning har to'rtovi tabiatan bir-birini to'ldiradi va taqozo etadi. Masalan, sadr zohirda bo'lsa, qalb uning ichida, fuod (yurak) esa qalb ichida va lab fuod ichidadir. Qalbning bu tizimdagi holati keyingi aloqalarga oid bo'ladi: chunonchi, sadr islom nurining ma'dani, qalb iymon nurining ma'dani bo'la oladi. Bu taqsimot bo'yicha sadr musulmonlarga, qalb mo'minlarga, fuod oriflarga, lab muvahhidlarga* daxldor hisoblanadi. Shu tariqa Hakim at-Termiziy qalbni ma'rifat ko'zgusi deb bilib, u haqida maxsus so'fiyona ta'limot yaratadi. Qalbni to'rtga bo'lish bilan uning juzdan kullgacha, ibtidoan intihogacha bo'lgan manzilini tasvirga oladi. Sadr zohir, ya'ni shariatdir, qalb allohga iymon keltirish, fuod (yurak) ma'rifatga oid va lab vahdatga erishishdir. Demak, so'fiy shariatdan tariqatga va undan ma'rifatga o'tib, oqibatda vahdatga noil bo'ladi. Bu yo'l, bu masofa va manzil at-Termiziyning so'fiyona ta'limotida shunday ifodalanadi. Agar zohidlik rutbasida to'qqiz pog'ona maqomlarni bosib, undan keyin oriflik tomon sakkiz zinalik hol darajalaridan o'tib ma'rifatga yo'l olinsa, bu murakkab masofani olim to'rt zina orqali muayyanlashtiradi. Shu to'rt zinadan eson-omon o'tgan so'fiy oriflik mansabini topib haqiqatga erishadi. Shu tartibda ul zot solikning ma'rifatga erishishi uchun oson va tushunarli yo'lni belgilaydi va shu bilan maxsus so'fiyona ta'limot yaratadi. Uningcha fano yo'li va vahdat topish mazkur to'rt zinalik qalb harakatiga bog'liq bo'lib, ularni bosib o'tgan kishi albatta maqsadga erishadi va yana Hakimning fikricha musulmon, mo'min, orif va muvahhid degan tushunchalarning taqsimlanishi ham vahdat marhilasining tavba, zikr, xarobot va fano atamalariga taqalgan bo'ladi va bu in'ikos (aks) orqali sadr ya'ni shariat, lab ya'ni vahdoniyatga payvand bo'lib, birlik doirasi hosil bo'ladi. Al-Hakim at-Termiziyning bu ajoyib tasavvufona bayonoti keyingi asrlarda shuhrat qozondi. Masalan mashhur mutasavvif arboblal imom G'azzoliy va Najmiddin Kubro mazkur ta'limotni qo'llab-quvvatlab, shu mezonda qalb tushunchasi haqidagi o'zlarining fikr-mulohazalarini izhor etadilar. Bu esa at-Termiziy ta'limotining ta'siri va uning so'fiyona an'anasidan dalolat beradi. Ammo shuni aytish kerakki, qadimgi so'fiylar ta'limotida inson qalbini yetti qavat osmonga qiyoslash hodisasi uchrab turadi. Chunonchi, bu bosqichlar quyidagi tartibda muayyanlashadi: qalb pardasi-shayton vasvasasi joyi, qalbning o'zi iymon mavzeyi, ishqoq-muhabbat joyi, fuod-mushohada mavzeyi, hubbulqalb-allohga qaratilgan xos muhabbat, suvaydo-mukoshafa joyi, muhoj ul-qalb-ilohiy sirlar joyi. Ko'ramizki, al-Hakim at-Termiziyning qalb xususidagi mazkur ta'limoti bu ta'limotdan farq qiladi va u alohida mazmunga ega, mantiqiy muhokamalarga asoslangan g'oyadir. Shu bois qalb tushunchasi haqida aytilgan hakimning fikrlari o'ziga xos maxsus bir qoida bo'ldi, an'ana kasb etib, izdoslar paydo etdi.

Mutasavvif olim qalb bilan bog'liq bo'lgan nafs masalasiga ham diqqat-e'tiborni qaratib, bu borada ilmiy asoslangan yangi xulosalarga keladi, u imkoni boricha insonning dushmani bo'lgan nafsni fosh etadi va unga qarshi halollik va poklik g'oyasini ilgari suradi. Ammo u o'z navbatida nafsni mazkur qalb tarkibidagi tushunchalar bilan bog'laydi. Chunonchi, u nafsni ammorani sadrga, nafsni mulhimani qalbgga, nafsni lavvomani fuodga, nafsni mutmainani labga mansub etadi. Shu bilan olim nafsning to'rt darajasini tayinlaydi, ularning zohirdan botingacha bo'lgan munosabati va harakatini aniqlaydi. Nafsni ammora va mulhima (ilhomga keltiruvchi nafs) agar insonga dushmanlik qiladigan narsa hisoblansa, nafsni lavvoma (vijdonli nafs) va mutmaina (tinch va orom nafs) insonga taskin berguvchi nafsdir. Ya'ni al-Hakim at-Termiziy fikricha nafs tushunchasi aslida poklik va nopoklik masalasi bilan bog'langan muammodir. Uning pokligi sid-qu safo va ruhoniyatga yetaklaydi va bu esa Haq dargohiga yo'l ochadi. Fuod va lab, ya'ni ma'rifat va tavid darajasi shu nafs ya'ni ruh harakati bilan hosil bo'ladi. Ammo nafsni ammora va mulhima hamisha olimning tanqidiga uchragan. Hakim at-Termiziy bu ikki nafsdan qutulish uchun doim najot izlagan, ularga la'natlar bildirib, poklik va musaffolikni shior qilgan. Xususan, ilhom berguvchi nafs, ya'ni nafsni mulhimaga qarshi olim jang e'lon qiladi. Jumladan, "Badv ush-sha'n" asarida bu haqda bunday deydilar: "nafs xohish qilgan narsalardan o'zimni tiydim; xususan menga ilhom baxsh etgani uchun shahvat nafsidan uzoqda bo'ldim"² Hakim Termiziyning "Ma'rifat ul asror" asari insonning o'z-o'zini

² Абуабдуллоҳ Муҳаммад бин Али ал-Ҳаким ат-Термизий. Бадв уш-шаън. Форс тилидан Рамазон Абдуллаев таржимаси. "Сино" журнали №7, 2002.Б. 32

ILMIY AXBOROT

tanishi, ichki olami sirlarini o'rganishiga bag'ishlangandir. Uning mutolaasi davomida nafs va uni bo'ysundirish yo'llari, qalb va uning kasalliklari hamda davolash usullari, ixlos va samimiyatning mohiyati, zikrning turlari va fazilati kabi ma'naviyatimizni boyitishga xizmat qiladigan hikmatlar o'z aksini topgan bo'lsa, ulug' zotning "Navodir al-usul" asarida valoyat (avliyolik), ma'rifat, nafs va qalb o'rtasidagi kurash haqidagi qarashlarini aks etgan. Yuqoridagi fikr va mulohazalardan shunday xulosa qilish mumkinki, Hakim at-Termiziyning inson ma'naviyati va kamoloti haqidagi qarashlarida asosiy e'tibor ilm egallash, axloqiy poklik, qalb, nafs, ruh va vujud tarbiyasiga berilgan. Shuni inobatga olgan holda buyuk vatandoshimizning ma'naviy g'oyalarini ilmiy asosda tadqiq qilish va uning keng jamoatchilikka yetkazish bir qator ijtimoiy-gumanitar fanlar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Zero, Hakim at-Termiziy qoldirgan boy ilmiy va ma'naviy meros o'rta asrlar va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Al-Hakim At-Termiziy "Xatm ul-avliyo" Tarjimon Komiljon Raximov. So'zbohi "Noshir" nashriyoti T.2017
2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali Hakim Termiziy "Ma'rifatul asror" (Sirlar ma'rifati) Tarjimon Abdulmajid Muhammad Tursunov T.2017, b-69
3. Ahmad Abdurahim Soyih. As-Suluk inda al-Hakim at-Termiziy va masodiruhu minas-sunna. –Qohira: "Dor as-salom", 1988.-B.172.
4. Abuabdulloh Muhammad bin Ali al-Hakim at-Termiziy. Badv ush-sha'n. Fors tilidan Ramazon Abdullaev tarjimasini. «Sino» jurnali №7, 2002.B. 32
5. Abdulhusayn Zarrinko'b. Justujo' dar tasavvufi Eron. Dushanbe: "Irfon", 1992.
6. Abulhasan Ali bin Usmon al-Jullobiy al-Hajviriy al-G'aznaviy. Kashf ul-mahjub. Valentin Jukovskiy tayyorlagan tanqidiy matn. Qosim Ansoriy nashri. "Tehron": 1376 h. B. 178
7. Al-Hakim at-Termiziy. Navodir al-usul. T.I. 2009.
8. Имом Абу Абдуллох Шамсиддин Мухаммад ибн Ахмад ибн Усмон Захабий. Сияру Аъламин Нубало. "Машхур даҳолар сийрати". Тошкент:-Sharq. Nashriёт- матбаа, 2015.-Б.429.
9. Hazratqulov Muhammadqul. Tasavvuf. Dushanbe "Maorif", 1988. B.75
10. Xaitov Lazizbek Azamatovich. HAKIM TERMIZIY MA'NAVIY MEROSINING INSON KAMOLOTIDAGI O'RNI. Monografiya, "BUKHARA HAMD PRINT" nashriyoti, 2023. 6 - b.